

SIRDARYO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2018 yil yanvar-mart holatiga

Viloyat statistika boshqarmasiga **2018 yilning yanvar-mart** holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **58** ta murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning hammasi to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar


MUROJAATLAR: (mazmun-mohiyat bo'yicha)



- Statistik ko'rsatkichlar
- KTYADRga oid ma'lumotlar
- Ish staj, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlar
- O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam berish so'ralgan
- Boshqa masalalar

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlilga ko'ra, 14 tasi viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan, 39 tasi korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasidan so'ralgan ma'lumot, 2 tasi o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan, 1 tasi nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji to'g'risida arxiv ma'lumotini olish masalasi yuzasidan, 2 tasi boshqa masalalar yuzasidan tashkil etgan.


Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili



Viloyat statistika boshqarmasiga Guliston shahardan 30 ta, Jizzax viloyatidan 13 ta, Boyovut tumanidan 5 ta, Sirdaryo tumanidan 3 ta, Yangiyer shahardan 1 ta, Shirin shahardan 1, Guliston tumanidan 1, Oqoltin tumanidan 2 ta, Navoiy viloyatidan 1 ta, Toshkent viloyatidan 1 ta murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlarni ko'rib chiqish holati


Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning barchasiga chora ko'rildi. Rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni-birlikda



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 26 ta jismoniy shaxslar va 32 ta yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quydagi

"Ishonch telefon"lari:

(0371) 230-86-15, (0367) 225-02-34

Pochta manzili - www.sirstat.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm2.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.

Viloyat statistika boshqarmasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomini nazorat qilish bo'limi

Nashr uchun ma'sul:

M.Mingbaeva

(0371)230-86-38